

# TA'LIM VA TARBIYA ULARDA OSHIRILGAN VA AMALGA OSHIRILISHI KERAK BO'LGAN SAMARALI O'ZGARISHLAR BUGUNGI KUN MAVZUSI

*Mustafoyeva Shahnoza Namozovna*

*Navoiy viloyati Uchquduq tumani*

*Kasb-hunar maktabi Maxsus fan o'qituvchisi*

## ANNOTATSIYA

Maqolada ta'lism tizimidagi pedagogik o'zgarishlar, ta'lism sifatiga qo'yilgan talablar, ta'lism va tarbiyaning uzlusizligini ta'minlovchi omillar va ularning hozirgi kundagi ta'sir yo'nalishlari keltirilgan. Bundan tashqari ta'lism sifatini oshirishga xizmat qiluvchi o'qituvchi shaxsining rivojlanish kompetentsiyalari, ularga qo'yilgan talablar hamda zamonaviy yondashuvlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetentsiya, ta'lism va tarbiya, malaka, ko'nikmalar, faoliyat uslubi, ta'sil sifati, ijtimoiy hayot

## KIRISH

Har qanday turdagi mehnat faoliyati insondan ixtisoslashgan bilim va malakani talab qiladi. Maxsus tayyorgarliksiz bajarib bo'lmaydigan faoliyat sohalari esa tobora kengayib bormoqda. Shu munosabat bilan insonning muayyan mehnat turiga tayyorligi va moyilligi masalasi mehnat jarayonida eng dolzarb masalalar qatorida turadi. Bu boradagi uzoq yillik izlanishlar davomida shaxsning biron kasb sohasidagi layoqatini belgilashda "professional bilim, malaka va ko'nikmalar" degan iboradan foydalanish odat tusiga kirdi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Ta'lism sohasidagi yangilanishlar, Bolon shartnomasiga a'zolik Evropa ta'limidagi standartlarning shu a'zo mamlakatlar ta'lism tizimidan o'rin olishiga va ayniqsa, "kompetentlik" atamasining ommaviylashuviga sabab bo'ldi. Ta'limda kompetentli yondashuvga asoslanish zamon talabi bo'lib, bu orqali ta'lism natijalari va amaliyotning zamonaviy talablari o'rtasidagi uzilishni tiklash imkonini yuzaga keldi. Pedagogikada "kompetentsiya" tushunchasi ostida shaxs tomonidan egallangan bilimlar va amaliyot orqali qo'yilayotgan vazifalarni tajriba asosida mustaqil ravishda hal eta olishga bo'lgan umumiylar tayyorlik va qobiliyat tushuniladi.

Bugungi kunga kelib, pedagogika fanida kompetentli yo'ndashuvning quyidagi jihatlari bayon etiladi:

1) kompetentsiyalar an'anaviy bilimlarning insondagi intellektual, kommunikativ, kreativ, metodologik, dunyoqarashga oid ko'nikmalar bilan uyg'unlashgan holatidir;



2) kompetentli yondashuv asosida ta'lim jarayonining maqsadga muvofiqlik va maqsadga yo'nalganlik g'oyasi yotadi. Bunday yondashuvda kompetentsiyalar o'quvchi malaka va ko'nikmalarining eng yuksak darajasini ifodalagan holda tashkiliy jihatdan to'rt komponentdan iborat bo'ladi: bilim, malaka, boshqaruv faoliyatga oid tajriba va qadriyatga asoslangan munosabat;

3) kompetentli yondashuv asosida ikkita asosiy tushuncha farqlanadi: kompetentsiya va kompetentlik.

Kompetentsiya – boshqaruv faoliyat talablarini o'zida aks ettirgan shaxs sifatlari, bilim, malaka, ko'nikma, faoliyat uslublarining o'zaro aloqador majmuidir. Kompetentlik – professional va ijtimoiy sohada samarali faoliyat yuritish maqsadida shaxsning potentsialini amalga oshirish istagi va qobiliyati bo'lib, bunda inson faoliyat natijasining yuksak ijtimoiy ahamiyatini shaxsiy mas'uliyat sifatida his etadi hamda natijani mukammallashtirib borish haqida qayg'uradi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar ta'lim ijtimoiy hayotning muhim sohasi hisoblanadi. Aynan ta'lim jamiyatning intellektual, madaniy va ma'naviy holatini shakllantiradi. Ta'lim mazmuni va uning yo'nalishlari ta'lim standartlari va dasturlarida o'z aksini topadi. Ta'lim sifatini baholashda quyidagi ketma-ketlikdagi tashkil etuvchilar hisobga olinishi talab etiladi:

- Bilim sohibi, tarqatuvchisi;
- Bilim uzatuvchilari;
- bilimni uzatish texnologiyasi;
- Bilim oluvchi;
- Bilimni mustahkamlik darajasi;
- Olingan bilimlarni zarurligi, kerakligi
- Yangi bilimlar olish zarurligi va imkoniyati.

Ta'lim sifati birinchi navbatda bilim sohiblari, tarqatuvchilarining ya'ni o'qituvchilarning sifati, saviyasi va kompetentsiya darajasi bilan belgilanadi. Ilmiy adabiyotlar tahlilidan ko'rindan, kompetentlik muayyan shaxs malakasini oshirish va ish-faoliyatini yaxshilashning indikatoridir. Olimlar tomonidan berilgan an'anaviy ta'riflarga ko'ra, kompetentlik – bu xodimning o'z ishini juda ham yaxshi bajarishida nimalar zarurligini aniq va Ravshan qilib anglab etishidagi bir qator standartlar majmui bo'lib, o'z ichiga malakalar, bilimlar va qator tushunchalarni qamrab oladi.

Ta'lim mazmunining o'quv rejadagi fanlar bloklari (barcha fanlar uchun), fanlararo (fanlar to'plami uchun) va predmetli (ma'lum bir fan uchun) tarzda guruhlanganligi bois quyidagi uch darajani namoyon etuvchi kompetentlikni e'tirof etish mumkin:

- tayanch kompetentlik (ta'limning gumanitar, ijtimoiy iqtisodiy mazmuniga ko'ra);

- fanlararo kompetentlik (umumkasbiy tayyorgarlikning o‘quv fanlari va ta’lim bloklarining ma’lum doirligiga ko‘ra);
- bitta predmet(fan) buyicha kompetentligi (maxsus o‘quv fani doirasida aniq va ma’lum imkoniyatga egaligiga ko‘ra).

Pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishda mutaxassis kompetentsiyalari klasteriga murojaat etish maqsadga muvofiqdir. Kasbiy kompetentlikning bunday klasteri uch xil:

faoliyatni, shaxslilikni hamda motivasiyani tashkil qiluvchi kompetentsiyalar majmuida ko‘rinadi. Shaxsning o‘z-o‘zini takomillashtirish kompetentligi ma’naviy, motivasion, intellektual va amaliy jihatdan o‘z-o‘zini rivojlanitirish, irodaviy va xissiy jihatdan o‘z-o‘zini boshqara olish qaratilgan.

O‘quvchi shaxsiy manfaatlari va imkoniyatlariga ko‘ra faoliyat usullarini egallaydi, bu unga o‘zida zamonaviy mutaxassisiga xos bo‘lgan shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlanirish, texnik tafakkurini, madaniyati va hulqini shakllantirishga yordam beradi. B.Nazarova esa, pedagogning kasbiy tarbiyalanganlik layoqatini tadqiq qilishga bag‘ishlangan asarlarni o‘rganish orqali kasbiy kompetentlikning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatadi:

- maxsus tarbiyalanganlik layoqati;
- kasbiy faoliyatini etarlicha yuqori darajada egallaganlik, o‘zining kelgusi kasbiy rivojlanishini loyihalash qobiliyati;
- ijtimoiy tarbiyalanganlik layoqati;
- birgalikdagi (guruqli, kooperativ) kasbiy faoliyatni, hamkorlikni va, shuningdek, mazkur kasbda qabul qilingan kasbiy muloqot uslublarini egallaganlik, o‘z kasbiy mehnati natijalari uchun ijtimoiy mas’ullik.

Shunday qilib, tayanch kompetentlik pedagogik ta’limning har bir bosqichi uchun ta’lim bloklari va o‘quv fanlari darajasida aniqlanadi. Tayanch kompetentlik tartibini belgilashda pedagogik ta’limning asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy ko‘nikmalarni egallahsga imkon beruvchi asosiy turlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu nuqtai nazardan ularni N.A.Muslimov quyidagi kompetentlik turlariga bo‘ladi:

1. Yaxlit-mazmunli kompetentlik. Bu o‘quvchining qadriyatli yo‘nalishlari bilan bog’liq, uning ijtimoiy borliqni his eta bilishi va tushunish qobiliyati, mustaqil hayot yo‘lini topa olishi, o‘zining ijtimoiy jamiyatdagi roli va o‘rnini anglab etishi, harakatlarni tashkil etishda aniq maqsadni belgilash hamda qaror qabul qilish malakasi, dunyoqarashi bilan bog’liq kompetentlik, u o‘quvchi uchun o‘quv va boshqa vaziyatlarda o‘zini aniqlash mexanizmini ta’minlaydi. O‘quvchining individual ta’lim yo‘nalishi va uning hayotiy faoliyatining umumiy dasturi ana shu kompetentlikka bog’liq.

2. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik. O‘quvchi chuqur o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilim va faoliyat tajribasining doirasi bo‘lib, milliy va umuminsoniy madaniyatlar xususiyatlari, inson va insoniyat hayotining ma’naviy-axloqiy asoslari, oilaviy va ijtimoiy an’analarning madaniy asoslari, inson hayotida fan va dinning roli, ularning moddiy borliqqa ta’siri, turmush va dam olish borasidagi bilimlar, masalan, bo‘sh vaqt ni samarali tashkil etish usullarini bilishi.

3. O‘quv-bilish kompetentligi, bu o‘quvchining o‘rganilayotgan aniq ob’ektlar bilan bog’liq mantiqiy, metodologik va ijtimoiy faoliyati elementlaridan iborat bo‘lgan mustaqil fikrlash kompetentliklarining to‘plami bo‘lib, unga maqsadni ko‘ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish, refleksiya, faoliyatga shaxsiy baho berish borasidagi bilim va malakalari kiradi.

O‘rganilayotgan ob’ektlarga nisbatan o‘quvchilarni kreativ ko‘nikmalari, ya’ni bilimlarni bevosita borliqdan olish, nostandart vaziyatlarda muammoni hal etishning harakat usullari va evristik metodlarini egallaydi.

### XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘qituvchining psixologik-pedagogik tayyorgarligi. Muvaffaqiyatli pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan psixologiya-pedagogika sohalari bo‘yicha zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalari.

Psixologik-pedagogik bilimlar. Oliy maktab pedagogika va psixologiya bilimlari (ta’lim nazariyasi, tarbiya nazariyasi, talabalar psixologiyasi va boshqalar), pedagogik faoliyat nazariyasi bo‘yicha bilimlar, oliy kasbiy ta’limning zamonaviy kontsepsiyalari to‘g’risida bilimlar, o‘z predmeti bo‘yicha o‘qitish metodikasini bilish.

O‘z navbatida, oliy ta’lim muassasasi o‘z ta’lim dasturlarini tashkilot talablari asosida kommunikativ va boshqaruv kompetentsiyalarga asoslangan holda qurishi kerakligi bugungi kunda ravshandir. Bunday ta’lim dasturlari asosida o‘qitilgan mutaxassis kadrlarning kompetentligi tashkilot talablariga mos kelishi lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Modulli o‘qitish texnologiyalari. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2007. – 97 b.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovation texnologiyalar / amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg’armasi, 2008. – 180 b.
3. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2011. – 275 b.
4. Maria Rosa, Alberto Amaral. Quality in Assurange in Higner Edication. Contemporary Debates. England, Hampsher, 2014.
5. Choriev R. K. Integrasiya teoreticheskix i prakticheskix znaniy kak sredstvo sovershenstvovaniya professionalnoy podgotovki budutshix injenerov-pedagogov. // Zamonaviy ta’lim, 2020 y. № 3 (88) 38-46 b.